



TO'LOV BALANSI VA UNING INVESTITSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI

Ergashova Marjona O'tkirkbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1- kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada to'lov balansi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda milliy iqtisodiyotdagi investitsiya jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. To'lov balansining barqarorligi, kapital harakati va xorijiy investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari yoritiladi. Joriy hisob va moliyaviy hisob ko'rsatkichlarining investitsiya muhitiga ta'siri iqtisodiy tahlil asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: to'lov balansi, investitsiya jarayonlari, joriy hisob, kapital harakati, moliyaviy hisob, xorijiy investitsiyalar.

BALANCE OF PAYMENTS AND ITS IMPACT ON INVESTMENT PROCESSES

Annotation

This article scientifically analyzes the concept of balance of payments, its components and impact on investment processes in the national economy. The issues of the stability of the balance of payments, capital movements and foreign investments are covered. The impact of current account and financial account indicators on the investment environment is assessed on the basis of economic analysis.

Keywords: balance of payments, investment processes, current account, capital movements, financial account, foreign investments.



ПЛАТЕЖНЫЙ БАЛАНС И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ

Аннотация

В данной статье научно анализируется понятие платежного баланса, его компоненты и влияние на инвестиционные процессы в национальной экономике. Рассматриваются вопросы стабильности платежного баланса, движения капитала и иностранных инвестиций. На основе экономического анализа оценивается влияние показателей текущего и финансового счетов на инвестиционную среду.

Ключевые слова: платежный баланс, инвестиционные процессы, текущий счет, движение капитала, финансовый счет, иностранные инвестиции.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligiga bog'liqdir. Ushbu aloqalarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri to'lov balansi hisoblanadi. To'lov balansi mamlakatning ma'lum davr mobaynida tashqi dunyo bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik va investitsiya muhitining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. To'lov balansining holati mamlakat iqtisodiyotining tashqi raqobatbardoshligi, valyuta barqarorligi va kapital oqimlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Investorlar mamlakat iqtisodiy muhitini baholashda to'lov balansi ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratadilar, chunki ushbu ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlik va daromadlilik darajasini ifodalaydi.

Joriy hisobning musbat yoki manfiy saldosi eksport-import munosabatlari, xizmatlar savdosi va daromadlar oqimini aks ettirib, investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy hisob esa kapital va investitsiya oqimlarining



yoʻnalishini belgilab beradi. Toʻlov balansida kuzatiladigan nomutanosibliklar iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi va investitsiya risklarini oshirishi mumkin.

Oʻzbekiston iqtisodiyotida ham toʻlov balansini barqarorlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilash masalalari ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, eksport salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni ragʻbatlantirish siyosati aynan toʻlov balansini sogʻlomlashtirishga qaratilgan. Shu sababli mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Deflyatsion siyosat. Bu siyosat, ichki talabni kamaytirishga yoʻnaltirilgan holda, oʻz ichiga byudjet mablagʻlarini aholi ehtiyojlariga kamroq sarflash, baholarni va ish haqlarini muzlatish kabilarni qamrab oladi. Uning asosiy instrumentlaridan biri boʻlib, moliyaviy va pul-kredit choralari hisoblanadi: byudjet defitsitini kamaytirish, Markaziy bankning hisob stavkalarini oʻzgartirishi (diskont siyosati); kredit cheklovlari; pul muassasining oʻsib borishiga chegara qoʻyish. Iqtisodiy pasayish, ishsizlikning yuqori koʻrsatkichi va toʻla foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini qoʻllash, ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, aholining turmush darajasiga sezilarli salbiy taʼsir koʻrsatib, vaziyatni yumshatish boʻyicha tezkor chora-tadbirlar qoʻllanilmasa, ijtimoiy nizolar keltirib chiqarishi mumkin. Toʻlov balansi– maʼlum bir vaqt mobaynida (chorak, yarim yil, bir yil va h.k.) bir mamlakat va unda roʻyxatdan oʻtgan korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralarining boshqa mamlakatlardagi korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralari bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarini oʻzida aks ettiruvchi statistik hisobotdir. Masalan, tovar va xizmatlarni eksport yoki import qilish, boshqa bir davlatga kredit berish yoki jalb etish, kredit boʻyicha toʻlovlarni amalga oshirish, xalqaro pul oʻtkazmalari, qimmatli qogʻozlar boʻyicha xalqaro savdolar va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu hisobot mamlakat tashqi iqtisodiy holatini tahlil qilish va unga oid pul-kredit, valyuta siyosati kabi makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun



muhim statistik asos vazifasini o'taydi. Xalqaro valyuta jamg'armasining tasnifiga binoan, to'lov balansi joriy operatsiyalar hisobi, kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobi, moliyaviy operatsiyalar hisobi hamda sof xatolar va yo'qotishlar kabi tarkibiy qismlardan iborat. Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi, bir mamlakatning xorijda ishlovchi hamda o'sha davlatda ishlovchi chet ellik ishchilarning daromadlari va xarajatlari, bir mamlakatning tashqi aktivlari va majburiyatlari bo'yicha qo'lga kiritgan yoki to'lab berishi lozim bo'lgan daromadlari, shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari, grantlar va insonparvarlik yordamlari va boshqa operatsiyalar to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobida aks etadi. Bundan tashqari, bir mamlakatdagi korxonaning boshqa bir mamlakat korxonasiga katta miqdorda bag'araz moliyaviy resurs taqdim etishi yoki ixtiyoriy ravishda qarzidan voz kechishi kabi kapital transfertlari hamda yer, tabiiy resurslar, shartnomalar, marketing ishlanmalari kabi ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar savdolari to'lov balansining kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobida jamlanadi. Nazariy jihatdan, joriy hamda kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisoblari saldosi yig'indisi moliyaviy hisobning saldosi ga teng bo'lishi lozim. Ammo, amaliyotda hisobot shakllanishida foydalaniladigan ma'lumotlar turli manbalardan olinishi, aktiv va majburiyatlar qiymatining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar to'lov balansi qismlarining nomutanosibligiga olib keladi. Ushbu nomutanosibliklar to'lov balansida sof xatolar va yo'qotishlar sifatida ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlilning nazariy va empirik usullariga asoslanadi. Nazariy metodlar doirasida to'lov balansi va investitsiya jarayonlariga oid ilmiy adabiyotlar, iqtisodiy konsepsiyalar va modellar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning investitsiya muhitiga ta'siri umumlashtirildi.

Empirik tadqiqot jarayonida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. To'lov balansining joriy hisob, moliyaviy hisob va kapital harakati bo'yicha ko'rsatkichlari investitsiya hajmlari bilan solishtirildi. Ma'lumotlar asosida korrelyatsion tahlil olib borilib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashga harakat qilindi. Taqqoslama tahlil



usuli yordamida turli davrlardagi to'lov balans holati va investitsiya oqimlari o'rganildi. Ushbu yondashuv to'lov balansidagi o'zgarishlarning investitsiya jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi.

To'lov balansining barqaror holati investitsiya oqimlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Joriy hisob saldosing musbat bo'lishi investorlar uchun mamlakatning tashqi iqtisodiy barqarorligini ifodalaydi va investitsion ishonchni kuchaytiradi. Moliyaviy hisobdagi ijobiy o'zgarishlar xorijiy investitsiyalar hajmining ortishiga olib keladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kapital oqimlarining barqarorligi investitsiya loyihalarining uzoq muddatli istiqbolini ta'minlaydi. Aksincha, to'lov balansida yuqori darajadagi defitsit investorlar uchun risk omili sifatida namoyon bo'ladi. Eksport hajmining oshishi va importga qaramlikning kamayishi investitsiya muhitini yaxshilashini ko'rsatdi. Valyuta tushumlarining ko'payishi moliyaviy resurslar bazasini kengaytirib, investitsiya imkoniyatlarini oshiradi.

Olingan natijalar iqtisodiy nazariyalarda ilgari surilgan qarashlarni tasdiqlaydi. To'lov balansining barqarorligi makroiqtisodiy muhitni mustahkamlab, investitsiya jarayonlarini faollashtiradi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, to'lov balansini samarali boshqarish investitsion xavflarni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Investitsiya oqimlarining barqarorligi to'lov balansining moliyaviy hisobiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ikki tomonlama bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli iqtisodiy siyosatda to'lov balans va investitsiya jarayonlari birgalikda ko'rib chiqilishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, to'lov balans mamlakat iqtisodiyotida investitsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot natijalari to'lov balansining barqarorligi investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy omillardan biri ekanligini



ko'rsatdi. Joriy hisob va moliyaviy hisob ko'rsatkichlarini muvozanatlash orqali xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, davlat iqtisodiy siyosatida to'lov balansini sog'lomlashtirish, eksport salohiyatini oshirish va kapital oqimlarini samarali boshqarish ustuvor vazifa bo'lib qolishi lozim.

Jahon tajribasida to'lov balansini hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitasi (Statistik idora) tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi. To'lov balansini tuzish markaziy iqtisodiy idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishni, shuningdek, axborotlarni to'plash va ishlashning mavjud tizimini qayta qurishni taqozo etadi, bu esa ko'p vaqt sarflashni talab qiladi. Davlat dasturi birinchi bosqichda ekspert baholash usullaridan va hisob-kitob ma'lumotlaridan foydalanish asosida to'lov balansini tuzishni nazarda tutadi. Keyinchalik balansni tuzish usuli birlamchi axborotga ko'proq yo'llangan bo'ladi. a oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet: Uchebnik. -T.: Iqtisod-moliya, 2007.
2. Sharifxodjaev M.Sh., Srojiddinova Z.X., Tulyaganova N.B. Byudjetnaya politika Respubliki Uzbekistan. Uchebnoe posobie. –T.: TFI, 2001.
3. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami, 3 jildlik, -T.: O'zbekiston, 2002.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini hisoboti*. Toshkent. <https://cbu.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). *Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va investitsiyalar statistikasi*. Toshkent. <https://stat.uz>
6. Abdurahmonov, O. A. (2020). *Makroiqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
7. Rasulov, B. B. (2019). To'lov balansini va iqtisodiy barqarorlik masalalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(2), 45–52.
8. Xolmatov, N. Q. (2021). Xorijiy investitsiyalar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri. *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 3(1), 33–40.